

**“ZAMONAVIY TA’LIM KLASTERI SHAROITIDA BOSHLANG’ICH
SINFLARDA TA’LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

Obidova M.SH.

CHDPUning Pedagogika fakulteti tyutori

Anotatsiya: Ushbu maqola “Zamonaviy ta’lim klasteri sharoitida boshlang’ish sinflarda ta’lim jarayonini takomillashtirish. (Rus tili misolida)” mavzusida magistr ilmiy darajasini olish uchun mo’ljallangan bo’lib unda umumiy o’rta ta’lim maktablarida rus tili darslarida innovatsion klaster asosida muloqot konpitensiyalarini oshirish yo’llari to’g’risida ma’lumot berilgan. O’quvchilarning chet tilida so’zlashuvda o’g’zaki nutqini o’stirishda mакtab pedagogi, ota –ona va o’quvchi o’rtasidagi olib borilgan tajriba natijalari ko’rsatib o’tilgan.

Аннотация: Это статья на тему «Совершенствование образовательного процесса в условиях современного образовательного кластера. (на примере русского языка)» предназначен для получения ученой степени в которой дана информация о способах совершенствования коммуникативных компетенций на основе инновационного кластера на уроках русского языка в общеобразовательных школах. Показаны результаты эксперимента школьного педагога, родителей и ученика по развитию устной речи учащихся при говорении на иностранном языке.

Abstract: This master's thesis is on the topic "Improvement of educational process in primary classes in the conditions of modern educational cluster (in the case of Russian language)". Intendedn for obtaining a scientific degree in which information is given on ways to improve communication competences based on an innovative cluster in Russian language classes in general secondary schools. The results of the experiment between the school pedagogue, parents and the student on the development of students' oral speech in speaking a foreign language are show

Калит сўзлар: таълим кластери, бошлангич синф, инновация , амалиёт, таълим методлари,жахон таълим жараёнлари,касбий фаолият, педагогика, амалий тадқиқотлар.

Ключевые слова: образовательный кластер, начальный класс, инновации, практика, методы обучения, глобальные образовательные процессы, профессиональная деятельность, педагогика, прикладные исследования.

Jahonda xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish orqali shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini amalga oshirish hamda davlat va jamiyatlarning umumjahon integrasiyalashuvini tezlashtirish muhim tendensiyalardan biri hisoblanadi. Jahon umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’quvchilarda bilimlarni o’zlashtirish va kasbiy

faoliyat modelini loyihalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yangi konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati kun tartibiga qo‘yilmoqda. Hozirgi kunda ta’lim tizimining shiddatli rivojlanishi pedagog xodimlar va talabalar oldiga qator vazifalarni qo‘yadi. Ayniqsa umumiy o’rtta ta’lim muassasalarida ta’limni rivojlantirishda innovasion texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Rossiya va boshqa ko‘plab davlatlarda zamonaviy ta’lim klasterini tashkil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakat va mintaqalararo diplomatik aloqalarning kengayishida munosib hissa qo‘sha oladigan, turli murakkab professional masalalarni hal qilishga qodir yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan talab ham kuchaymoqda.

Dunyoning yetakchi umumiy o’rtta ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni, jumladan, rus tilini o‘qitish mazmuni va o‘quv-metodik ta’minoti, ta’lim texnologiyalari, shuningdek, o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini innovasion texnologiyalar vositasida rivojlantirish, ta’lim natijalarini baholashning ob’yektivligini ta’minlovchi vositalarni ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarda ilmiy –amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga rus tilini o‘qitish sifatini takomillashtirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatorida ilmiy izlanishlarning mustaqil yo‘nalishi hamda pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanalib, innovasion texnologiyalar asosida talabalarga rus tilini o‘qitish bo‘yicha samarali tizimni yo‘lga qo‘yish zaruratini belgilaydi.

Mamlakatimizda pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, tarbiya va o‘qitish usullari, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzliksiz tizimini joriy qilish kabi yirik ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni bajarishga ustuvorlik berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o’rtta ta’lim muassasalarida ta’lim muassasalari o‘quvchilarining rus tilda nutqini rivojlantirish, ularda ushbu tilda erkin muloqot qilish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan klaster ta’lim tizimi yaratilmoqda. Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish, til o‘rgatish metodologiyasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Bozor iqtisodiyotida poliglot kadrlarga bo‘lgan talab ortib borayotganligidan kelib chiqqan holda, metodik ishlarni tashkil etish, xorijiy tajribalarni o‘rganish, oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirilgan rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, shu jumladan, talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari o‘quvchilarining o‘quv-biluv kompetentligini oshirishga qaratilgan amaliy vazifalar ko‘lami operasiyalarning tarkibi va sifati, ularning xabardorligi, to‘liqligi, barcha bilim qobiliyatları uchun umumiy majmuaga

asoslanganlik kabi mezonlarga tayangan holda zamonaviy ta’lim klasteri sharoitida boshlang‘ich ta’limda rus tilini inovasion metodlari asosida o‘qitishda loyiha ishlab chiqish kabi amaliy vazifalar tasnifi kengaytirilgan;

- har bir integral ta’lim va bilim aktining sifat jihatidan yangi integrasiyalashgan natijasini ta’minlaydigan bilish jarayonlarining natijasi sifatida taqdim etilgan;

- boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishning lingvodidaktik shart-sharoitlari o‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyati va mustaqilligini faollashtirish, intensiv metod va usullardan foydalanish, o‘quvchining o‘quv-biluv tajribasini va ta’lim jarayonida mustaqil bilim olish kompetensiyalari mazmunini o‘z ichiga olish shartlarini ta’minlash orqali aniqlashtirilgan;

Ta’lim tizimini takomillashtirish dasturida halqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatları, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir, deb aloxida ta’kdlanadi. Darhaqiqat, bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlik, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu o‘z navbatida xorijiy tillar fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-1875-sonli qarorini tizimli amalga oshirish maqsadida boshlang‘ich sinflarda xorijiy tilni o‘quvchilarga o‘rgatishdan maqsad ularning shu tilda so‘zlash, yozish, tinglab va o‘qib tushunish kabi ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda bolalarning tafakkuri, muloqot madaniyati, bilim olishga qiziqishi, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiziquvchanlikni uyg‘otishga qaratiladi. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatini muvaffaqiyatli o‘stirish kelgusida fanlarni puxta o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi. O‘quvchilarda chet tili orqali mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar o‘ziga xos ahamiyat kasb namoyon etadi. Bugungi kunda o‘qituvchiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ham ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan tanishish, amalda qo‘llash va shular orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Uzluksiz ta’lim tizimining hamma bo‘g‘inlarida ham o‘qituvchi dars jarayonida noan’anaviy darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanadi, lekin boshlang‘ich sinflarda xorijiy tillarni o‘quvchilarga o‘rgatishda xorijiy til o‘qituvchisi o‘quvchilarning psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish qoidalarini bilib, o‘rganib darsning maqsad va mazmunidan kelib chiqib, pedagogik texnologiyalarni darsda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlatishda quyidagilarga e’tibor berishi lozim.

Ma’lumki, mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirishda xorijiy tillarni o‘qitishning mukammal tizimi, ya’ni har

tomonlama zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashda vazifasi qo‘yilgan. Respublikamizda jahon hamjamiyatiga yanada integrasiyalashuvga yo‘naltirilgan tizim yaratish maqsadida O‘zbekistonda boshlang‘ich sinflarda xorijiy tilni o‘quvchilarga o‘rgatishdan maqsad ularning shu tilda so‘zlash, yozish, tinglab va o‘qib tushunish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga ahamiyat qaratilmoqda. O‘qituvchi dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni ishlatalishda quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

- o‘quvchilar ongida muayyan mavzu asosida yangi tushunchalarni hosil qilish;
- yangi mavzuga oid qoida, atamalar mohiyatini ochib berish;
- yangi mavzuni o‘tilgan mavzular bilan izchillikda yetkazish;
- o‘quvchilarning fikrlash darajasini rivojlantirib borish;
- ta’limiy o‘yinlarning izchilligi, xilmassalligi va qiziqarli bo‘lishiga erishish;
- shu mashg‘ulotning o‘zida yangi bilim asosida shakllangan ko‘nikmalarin tekshirib borish;
- o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- dars jarayonida o‘quvchilar ishtirokini kuchaytirib borish.

Demak, shuni ta’kidlash kerakki, kelajagamiz bo‘lgan yoshlarning erkin fikrlovchi, barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish zarur. Jumladan, xorijiy tillarni o‘rganish darajalari mazkur maqsadni amalga oshirishda o‘quvchilarning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganib, o‘zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashda to‘sinq bo‘ladigan salbiy psixologik holatlarni aniqlash va bartaraf etishda qo‘llanishi lozim. Demak, boshlang‘ich sinflarda ta’lim oladigan o‘quvchilarning o‘ziga xos bir qator muammolari mavjud. O‘qituvchi ham pedagog, ham psixolog bo‘lib qolmasdan, ular bilan ishslash texnikasini ham bilishi lozim. Yuqorida maqsaddan kelib chiqib, bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitish DTSda ko‘rsatilgan boshlang‘ich sinflarni o‘z ichiga oladi. Demak, xorijiy til o‘qituvchisi 2-3 - sinflarda ta’lim jarayonida qanchalik ustalik bilan pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida, maqsadli foydalansa, dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Bugungi har bir fan o‘qituvchisi o‘z fanining xususiyatidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida turli interfaol usullardan foydalanmoqda. Bizning yo‘nalishimizning maqsadi boshqa fanlardan farqli ravishda noan’anaviy darslarda pedagogik texnologiyalarning turli interaktiv usullaridan foydalanib, kichik yoshdagil o‘quvchilarni erkin fikrlashga tayyorlashdir. Davlat ta’lim standartida har bir sinf uchun, masalan, 2 - sinf uchun 200 ta, 3 - sinf uchun 250 ta so‘z va iboralarni o‘rgatish maqsadi qo‘yiladi, demak, xorijiy til o‘qituvchisi pedagogik texnologiyalar asosida yuqorida ta’kidlangan maqsadlarni amalga oshiradi.